


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI



**QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLASH
TEXNOLOGIYALARI KAFEDRASI**

**UZUMCHILIK
FANI O'QUV DASTURI**

Bilim sohasi: 800000- Qishloq, o'rmon, baliq xo'jaligi
Ta'lim sohasi: 810000 – Qishloq xo'jaligi
Ta'lim yo'nalishi: 60811000 – Meva-sabzavotchilik va uzumchilik

Guliston – 2024

Fanning nomi	Uzumchilik
Fan/modul kodi	UZUMB1510
Fan/modul turi	Majburiy
O'quv yili	2026/2027
Fan semestri	5,6
Ta'lim tili/turi	O'zbek/kunduzgi
Fanga ajratilgan soat/kredit	300/10
Auditoriya soat	120
Mustaqil ta'lim uchun ajratilgan soat	180

LEFANNING MAZMUNI

Fanni maqsadi: uzum mahsulotlarini yetishtirish, uzumning fenologik fazalarini, tok tuplarida amalga oshiriladigan agrotexnik tadbirlar va ularni hosildorligini oshirishning asosiy usullarini o'zlashtirishni hamda yangi kirib kelgan navlarini ko'paytirishga xalq usullaridan foydalanishni o'rgatishdir..

Fanning vazifasi: Talabani ushbu fan bo'yicha olgan nazariy va amaliy bilimlarini birituv ishlarini bajarish bilan real sharoitga qo'llash bo'yicha ko'nikmalar hosil qilishdir.

II. ASOSIY NAZARIY QISM (Ma'ruza, amaliy (seminar) va mustaqil ta'lim mavzulari)

II.1 Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi

№	Mavzu nomi	Ma'ruza mashg'ulotida ko'riladigan mavzular	Amaliy (seminar) mashg'ulot bo'yicha mavzulari	Mustaqil ta'lim va mustaqil ish mavzulari
1	1-mavzu. Uzumchilik fan va o'simlikshunoslikning tarmog'i	Uzumchilikning xalq xo'jaligidagi ahamiyati.	O'zbekistonda rayonlashtirilgan uzum navlarini o'rganish	MXD va uzoq chet ellarda uzumchilikni rivojlanishi
2	2- mavzu. Tok o'simlikning biologiyasi.	Tokning ildiz va ildiz tizimi. Tokning yer ustki qismi (poyasi). Tok novdasining anatomik tuzilishi.	Tok ildizining morfologik va anatomik tuzilishi	Uzumni qalamchadan ko'paytirish usullari
3	3- mavzu. Tokdoshlar oilasining kelib chiqishi va tasnifi	Tokning kelib chiqish tarixi. Tokdoshlar (vitaceae juss) oilasi. Tokchilik markazlari	Tok poyasining morfologik va anatomik tuzilishi	Uzumni eng erta pishadigan navlarini yetishtirish texnologiyasi
4	4- mavzu. Tok o'simligining yillik rivojlanish davrlari	Tokning yillik rivojlanish jarayoni xususiyatlari. O'sish davri va unda kechadigan fenalogik fazalar. Tinim davri va uning xususiyatlari.	Tokzor territoriyasini tashkil etish rejasini tuzish	O'sishni boshqaruvchi moddalarni uzumchilikda qo'llash
5	5- mavzu. Ekologik omillarning tokning o'sishi, rivojlanishi, hosildorligi, hosil sifatiga ta'siri.	Tokning yorug'lik, issiqlik, namlik, shamol va do'l, tuproq (edafik) sharoitlari	Tokzor barpo qilish rejasini tuzish	Uzumdan sharbat, qiyom, murobo va sharob tayorlash texnologiyasi
6	6- mavzu. Tok ko'paytirish va ko'chat yetishtirish	Tok uchun joy tanlash va uni ekishga tayyorlash. Qalamchalarni kilchyovkalash. Qalamchalarni ekish va parvarish qilish	Tok tuplarining tirgovuch xillari. So'ri qurish uchun materiallar ehtiyojini hisoblash	Uzumning xo'raki navlarini yetishtirish texnologiyasining o'ziga xos xususiyatlari
7	7- mavzu. Tokni payvand ko'chatlarini yetishtirish	Payvandlashning nazariy asoslari. Payvandlashning tasnifi (klassifikatsiyasi). Uning ishlab chiqarishdagi ahamiyatiga ega bo'lgan	Tokzorda aprobatziya, ommaviy va klon seleksiya qalamcha	Uzumni noanaviy usulda ko'paytirish usullari

		usullari. Tokzorlarda qo'llaniladigan payvandlash usullari	tayyorlash qoidasi	
8	8- mavzu. Tok ko'chatlarini issiqxonalarda yetishtirish	Ochiq va katta maydonlarda qalamchalardan tok ko'chatlarini yetishtirish har doim ham kutilgan natijani beravermaydi. Ayniqsa ko'chatzor uchun qulay joy tanlash, almashlab ekish tizimini joriy qilish.	Qalamchalar sifatini aniqlash. Uzun ko'paytirish uchun foydalanish	Toklarni ko'paytirish uchun qalamchalar sifatini aniqlash
9	9- mavzu. Tokni yashil qalamchalardan ko'chat yetishtirish	Tok ko'chatlarini jadal yetishtirish usullaridan biri. Uzunning har xil navlari ko'chatlarini tez, arzon va ko'proq yetishtirishda 1-2 ko'zli yashil qalamchalardan foydalaniladi.	Qalamchalar tayyorlash va ularni saqlash usullari	Tok qalamchalarini tayyorlash va ularni saqlash usullari
10	10- mavzu. Tokni in vitro sharoitida ko'paytirish	Uzun navlarini biotexnologik usulda in vitro sharoitida yetishtirish sog'lomlik darajasi 99,07-99,28% bo'lgan yuqori sifatli sertifikatlangan ko'chat yetishtirish imkonini berdi.	Qalamchalarni ekishga tayyorlash usullar	O'z ildiziga ega bo'lgan uzun ko'chatlarini yetishtirish uchun qalamchalarni ekishga tayyorlash
11	11- mavzu. Tokzor barpo qilish	Tokzorlar barpo qilish uchun yerni tanlash, tayyorlash, ko'chatlarni ekish va parvarishlash.	Qalamchalarni ko'chatzorga ekish va uzun ko'chatini yetishtirish	Fillokseraga chidamli ona payvandtaklar navlari. Payvandtak va payvandusti qalamchalarni tayyorlash va saqlash
12	12- mavzu. Uzun navlari va ularni zonalar bo'yicha joylashtirish	Tok tuplari tokzor barpo etiladigan hududning yer, tuproq - iqlim sharoitlari, shuningdek, uzun yetishtirishning yo'nalishi asosida ekilishi lozim.	Tokni yog'ochlangan qalamchalar bilan payvandlash	Tok qalamchalarini ekishdan oldin ishlov berish usullari
13	13- mavzu. Tok tuplariga shakl berish va tok kesish	Tok tuplariga shakl berishning mohiyati va usullari. Tok kesish. Tok kesish qoidalari. Tok kesish muddati. Zang va novdalarni bog'lash.	Uzunni ko'k qalamcha bilan payvandlash	Tokni yog'ochlangan qalamchalar bilan payvandlash
14	14- mavzu. Bahorgi sovuq va do'ldan zararlangan tok tuplarini kesish	Sovuqdan zararlangan tok tuplarini tiklash maqsadida, ular alohida qoida asosida kesilishi kerak.	Payvandlashning anatomiyasi va fiziologiyasi	Payvandlashning anatomiyasi va fiziologiyasi
15	15- mavzu. Tok novdalarini xomtok qilish, chilpish, olib tashlash, bog'lash, xalqalash va chekanka qilish	Xomtok jarayonida hosilsiz, sust o'sgan, keraksiz novdalar olib tashlanadi.	Payvandlashda qalamchalarni stratifikatsiyalash, parafinlash va moslashtirish	Payvandlashda qalamchalarni stratifikatsiyalash, parafinlash va moslashtirish
16	16- mavzu. Tokni sun'iy va qo'shimcha changlash.	Tok gullarining sun'iy va qo'shimcha changlashdan maqsad yaxshi changlanishi va urug'lanishi uchun qulay sharoit yaratishdir. Bu esa, yuqori va sifatli hosil yetishtirishda muhim hisoblanadi.	Tokni payvantlash	Tokni payvandlash
17	17- mavzu. Tok uzum boshi, g'ujumilari va bargini siyraklashtirish.	Hosil sifatini oshirish omillaridan biri. Bunday usul, ayniqsa, sifatli Xo'raki uzum yetishtirishda to'pgullar hamda uzum boshlaridagi g'ujumlar ma'lum darajada siyraklashtiriladi.	Ko'chatzorga payvandustni ekish va payvandlangan uzun ko'chatlarni yetishtirish	Uzunni ko'k qalamcha bilan payvandlash
18	18- mavzu. O'stiruvchi moddalardan foydalanish.	Uzum hosili va sifatini yaxshilash maqsadida o'stiruvchi moddalardan foydalaniladi.	Ko'chatzordan ko'chatlarni kovlash, ularni saralash, saqlash va	Ko'chatzordan ko'chatlarni kovlash, ularni saralash, saqlash va realizatsiya qilish

			realizatsiya qilish	
19	19- mavzu. Tokzor tuprog'ini saqlash va unga ishlov berish	Tokzor tuprog'ini saqlash. Tokzor tuprogiga ishlov berish. Tok tuplarini kumish va ochish.	Tok tupining navdalarini kesish xillari, mo'ljallangan hosildorlik va kesish rejasini tuzish	Tokzor qator oralaridagi begona o'tlarga qarshi kurashishda gerbitsidlardan foydalanish
20	20- mavzu. Tokzorni o'g'itlash	Asosiy oziq moddalarning ahamiyati. O'g'itlar va ular tavsifi O'g'itlash tizimi.	Kesish qoidasi. Uning o'tkazish muddatlari. Ishchi qurollarini kesishga tayyorlash	Uzumda keng tarqalgan kasalliklariga qarshi kimyoviy preparatlarni qo'llash me'yori va muddatlari
21	21- mavzu. Tokzorni sug'orish	Suvning tok hayotidagi roli. Sug'orish usuluri. Tomchilarib sug'orishni o'ziga xos afzalliklari.	Tuplarni kesishga tayyorlash va uning o'tkazish texnikasi	Tokzorlarni o'g'itlash. Tokzorlar maydoniga solinadigan organik va mineral o'g'itlar me'yori. O'g'it solish sxemasi
22	22- mavzu. Tog'li va tog' oldi zonalarida tokchilik.	Tog'li va tog' oldi zonalar o'zining tuproq-iqlam va iqtisodiy sharoitlariga ko'ra, tekislik zonalaridan tubdan farq qiladi.	Yosh va hosilli tokzorlardagi tuplarni kesish	Tokzorlarni sug'orish
23	23- mavzu. Sizot suvi yaqin, shurlangan va tosh-shag'alli yerlarda tok o'stirish.	Sizot suvlari yuza, sho'rlangan hamda tosh-shag'alli yerlarning meliorativ holatini yaxshilab tokzorlar maydonini kengaytirish, ulardan yuqori va sifatli hosil yetishtirish mumkin.	Zang va hosilli novdalarni bog'lash	Tokzorlarni sug'orish usullari, muddati va me'yori
24	24- mavzu. Uzum hosilini terish	Pishishdan oldingi nazorat. Hosilni terishdagi qoidalar. Hosilga qo'yiladigan standartlar.	Tok tupidagi yashil novdalarni xomtok qilish	Hosilni oldindan aniqlash. Hosilni yig'ib-terib olish
25	25- mavzu. Xususiy tokchilik	Xo'raki uzum navlarini yetishtirish.	Chilpish, qultiq novda, chekanka va surilarga yashil novdalarni bog'lash	Uzum hosilini yig'ib-terib olish rejasini tuzish
26	26- mavzu. Kishmishbop uzum navlarini yetishtirish.	Mayiz tayyorlashda ishlatiladigan uzum navlarini agroteknikasini tahlil qilish	Tokzorda organik va mineral o'g'itlar solish me'yoring	Tokzorni qayta tiklash va ta'mirlash. Tokzorni qayta tiklash usullari. Qayta tiklash rejasini tuzish
27	27- mavzu. Sharobbop uzum navlarini yetishtirish	Vino uchun ishlatiladigan uzum navlarini agroteknikasini tahlil qilish	Tokzorlarni sug'orish me'yori, muddati va usullari	Tokzor xatolarini ko'chat, parxish va payvandlash bilan qayta tiklash
28	28- mavzu. Uzuning hosildorlik ko'rsatkichlarini aniqlash	Tok tuplarini o'stirish usuli b'yicha xosildorlik ko'rsatkichlarini aniqlashni o'rganish	Uzum hosilini yig'ib-terib olish rejasini tuzish	Tokzorni ta'mirlash usullari. Ta'mirlash rejasini tuzish

III. Kurs ishi mavzulari:

KURS ISHINI TASHKIL ETISH BO'YICHA USLUBIY KO'RSATMALAR

Kurs ishining maqsadi talabalarni mustaqil ishlash qobiliyatini rivojlantirish, olgan nazariy bilimlarini qo'llashda amaliy ko'nikmalar hosil qilish, bevosita ishlab chiqarishdagi real sharoitlarga mos keladigan agrotexnika yechimlar qabul qilish va zamonaviy mexanizatsiya va agrotekhnologiyalarni qo'llash ko'nikmalarini hosil qilishdir.

Kurs ishi mavzulari bevosita ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarida agrotexnologik jarayonlariga bog'liq holda, aniq bir ixtisoslashgan fermer xo'jaligi sharoiti uchun belgilanadi. Kurs loyihasining mavzulari umumiy talabalar sonidan 20-30% ko'proq oldindan tayyorlanadi. Har bir talabaga shahsiy topshiriq beriladi.

Kurs ishi ob'ekti sifatida bog' yoki ko'chatchilik xo'jaligi sharoitlarida ishlatiladigan biror bir meva turi xizmat qiladi. Aniq bir ixtisoslashgan fermer sharoiti uchun mos keluvchi meva ekinlari turi va agrotexnologiyasi asoslangan holda tanlanadi, hisoblanadi va iqtisodiy samaradorligi baholanadi. Kurs ishining hisob-grafik ishlari zamonaviy kompyuter dasturlarida bajariladi. Kurs ishi kirish, meva ekinlari navlarining tasnifi kerak bo'ladigan asbob-uskunalar va yetishtirish texnologiyalari hamda 1 ga maydonga kerak bo'ladigan sarf xarajatlar texnologik kartalaridan tashkil topadi.

Kurs ishi mavzulari

1. Uzumchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaligida uzum yetishtirish texnologiyasini tanlash va uni iqtisodiy samaradorligini hisoblash;
2. Uzumchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaligida tok tuplariga shakl berish va kesish texnologiyasini usullarini tanlash va uni iqtisodiy samaradorligini hisoblash;
3. Uzumchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaligida xo'raki uzum navlarini yetishtirishni iqtisodiy samaradorligini hisoblash.
4. O'zbekiston Respublikasi viloyatlarida uzumni tarqalgan zonalar va ularga qisqacha tavsifnoma berish.
5. Xo'raki uzum navlarini yetishtirish texnologiyasi
6. Sharobbop uzum navlarini yetishtirish texnologiyasi.
7. Mayizbop uzum navlarini yetishtirish texnologiyasi.
8. Uzum ko'chatini yetishtirish texnologiyasi.
9. Uzumni xalq xo'jaligidagi ahamiyati. Uzumning asosiy turlariga tavsif berish va asosiy navlarini yetishtirish texnologiyasi.

IV. Fanni o'qitilish natijalari / shakllanadigan kompetensiyalar

Ushbu fanni o'zlashtirish natijasida, talabalar quyidagi ko'nikmalarga ega bo'ladi:

1. "Uzumchilik" fanini o'zlashtirish jarayonida uzumchilikning rivojlanish tarixi, hozirgi holati, istiqboli va ahamiyati, uzum morfologiyasi, biologiyasi va anatomiyasi, uzumni ko'paytirish usullari, ko'chatlarini yetishtirish texnologiyalarining o'ziga xos xususiyatlari, uzumni yangi yuqori hosilli nav namunalari tavsifi, ekish muddatlari va usullari hamda parvarishlashda yangi texnologiyalarni qo'llash to'g'risida tassavurga ega bo'ladi (**bilim**);
2. Talabalar "Uzumchilik" fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr tok tuzulishi, rivojlanishi, hosilning shakllanishi, hosilni oldindan aniqlash usullarini bilishi va ulardan foydalana olishi (**ko'nikma**);
3. Talabalar uzumning biologik – morfologik tasnifini bilish; tok navlarini xo'raki, kishmishbop va vinoboplarga ajratish; uzumni o'sish fazalari va davrlari haqida tushuncha; tok o'simliklarni ko'paytirishning biologik asoslarini o'zlashtirish ko'nikmasiga ega bo'lish (**malaka**).

V. Ta'lim texnologiyalari va metodlari

- dolzarb mavzu bo'yicha shaxsiy fikrini tanqid, publitsistik va boshqa janrlar (masalan, esse)da yozma bayon qilish;
- ma'ruzalar tayyorlash;
- kurs ishi yozish;
- konspekt yozish;
- glossariy tuzish;
- individual va jamoaviy o'quv loyihasi tuzish;
- keys-topshiriqlarini bajarish;
- mavzuli portfoliolar tuzish;
- axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash;

- manbalar bilan ishlash;
- chizma-tasviriy modellar (intellekt-kart, freym, mantiqiy graf va h.k.) yaratish;
- multimediali taqdimotlar yaratish.

VI. Kreditlarni olish uchun qo'yiladigan talablar

Joriy, oraliq va yakuniy nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni muvaffaqiyatli topshirish.

Asosiy adabiyotlar:

1. Temurov Sh.S. – “Uzumchilik” Toshkent 2002. O'quv qo'llanma
2. U.I. Mamatov - “Uzum yetishtirish” Toshkent 2021. Tasvir nashriyot uyi. “Agrobank” ATB 100 kitob loyihasidagi 60 kitob.
3. V. Gorbach, Yu. Djavakjans – “Виноград Узбекистана” Toshkent 2001.
4. R.M. Abdullayev va boshqalar. - “Suv tanqisligi sharoitida meva va uzumdan yuqori hosil olishda suvni tejash texnologiyasi” Toshkent 2010. Tavsiyanoma
5. J.N. Fayziyev. – “O'zbekiston sharoitida uzumning urug'siz navlari hosildorligi va sifatini oshirish texnologiyasini ilmiy asoslash”. Toshkent 2023. Monografiya.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. I.Ergashev.- “Meva va rezavor meva ekinlari seleksiyasi va navshunosligidan amaliy mashg'ulotlar” Toshkent 2007. O'quv qo'llanma.
2. Akademik Mahmud Mirzayev nomidagi bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot instituti tashkil topganining 120 yilligiga bag'ishlangan “Mintaqalararo mevalilik va uzumchilikning holati, muammolari, istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman maqolalar to'plami. Toshken 2018.
3. R.M. Abdullayev va boshqalar. - “Uzum yetishtirish va mayiz quritishning zamonaviy texnologiyasi” Toshkent 2013. O'quv qo'llanma.
4. Solle le Vond, Stella Cubison, Tant. Fruit Growing. Manual. USA 2010. r 31.53.
5. C.R. Adams, K.M. Bamford and M.P. Early. Principles of Horticulture Fifth edition. Printed and bound in Slovenia 2008.


Internet saytlari

1. www.gov.uz- O'zbekiston Respublikasi hukumat portali.
2. www.lex.uz- O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.

Guliston davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.

Fan/modul uchun ma'sullar:

P. Egamberdiyev “Qishloq xo'jaligi maxsulotlarini qayta ishlash texnologiyalari” kafedrası, q.x.f.f.n., dotsent



Taqrizchilar:

O. Sattorov – ToshDAU, q.x.f.f.n., dotsent



O. Raxmatov – GulDU, t.f.d., professor



Izoh: Ushbu fan dasturi Missouri university, Cornell universiteti va Wageningen university ta'lim dasturlari asosida takomillashtirildi.